

MEHNAT MIGRATSIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH (O'ZBEKISTON VA TURKIYA MISOLIDA)



SH.K.Ergashev

Guliston davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilinadi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar hamda xalqaro huquq me'yorlari doirasida mehnat migrantlarining huquqiy maqomi va himoyasi muhokama qilinadi. Shu bilan birga, ikki davlat qonunchiligidagi o'ziga xosliklar, migrantlarning huquqiy himoyasi va amaliy hamkorlik natijalari ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, migrantlarning huquqlarini himoya qilishda duch kelinayotgan muammolarni hal qilishga qaratilgan takliflar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Migratsiya, mehnat resurlari, yuridik yordam, ijtimoiy himoya, normativ hujjatlar, ijtimoiy sug'urta, ishchi vizasi.

Hozirgi globallashuv davrida mehnat migratsiyasi davlatlararo munosabatlarda muhim o'rin tutmoqda. Xalqaro migrantlar butun dunyo aholisining 3,5 foizini tashkil etadi, bu ko'rsatkich 2000-yilda 2.8 foizni tashkil etgan. Endi buni O'zbekiston misolida aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda O'zbekistonlik mehnat migrantlarining umumiy soni 5 mlnga yaqin [1]. Hududimizdagi mehnat resurslari sonining yildan-yilga o'sib borishi aholining ish bilan bandligini ta'minlash borasida qiyinchiliklar tug'dirib, bu o'z navbatida tashqi mehnat migratsiyasini kuchaytirdi. Mehnat migrantlarining boradigan davlatlari ham yildan-yilga xilma-xillashib bormoqda. Hozirgi taraqqiyot tez odimlayotgan zamonda kishilarning ongi va dunyoqarashidagi o'zgarishlar rivojlanish va turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga borib ishlashni afzal ko'rishlariga sabab bo'lmoqda. Misol uchun hozirgi kunda yosh mehnat migrantlari asosan rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan Turkiya, AQSH, Koreya, Yaponiya kabi davlatlarga ishlashga bormoqdalar [2]. Xususan, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi mehnat migratsiyasi jarayonlari ikki davlat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ikkala davlat ham migrantlar oqimini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni rivojlantirishga intilmoqda, bu esa mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish va ularning faoliyati uchun qulay sharoit yaratish bilan bog'liq masalalarni yanada dolzarb qiladi. Xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlari turli mamlakatlar iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va siyosiy munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham alohida o'rin tutadi. Ikkala davlat ham o'ziga xos iqtisodiy va demografik omillarga ega bo'lib, xalqaro mehnat migratsiyasiga o'zining maxsus yondashuvlarini ishlab chiqqan. Shu sababli, mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish masalasi har ikki davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda mehnat migratsiyasining huquqiy tartibga solinishi. O'zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solish milliy qonunchilikka tayanadi. O'zbekistondan chet elga ishga ketayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha qonuniy asoslar mavjud. O'zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi asosiy normativ hujjatlar quyidagilardan iborat: "Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini (Bryussel, 1953-yil 19-oktabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni; Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni; Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni; Vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish uchun respublika hududidan transport orqali chet elga jo'nab ketish vaqtida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori; O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat

munosabatlari vazirligi xuzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining xorijiy vakolatxonalarini ochish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining prezidentining qarori; Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori [3] va boshqa normativ hujjatlar O'zbekistonda mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solishda asosiy manba hisoblanadi.

Turkiyada mehnat migratsiyasining huquqiy tartibga solinishi. Turkiyada ham mehnat migrantlari bo'yicha qonunchilik keng rivojlangan bo'lib, u xalqaro huquq me'yorlari bilan uyg'unlashtirilgan. Turkiya Respublikasida chet el fuqarolarining ishlashi uchun ruhsat olishlari kerakligi va bu ish ruhsatlarining berilishi uchun amal qilinadigan tartib-qoidalar Turkiyaning 4817-raqamli "Chet el fuqarolari uchun mehnat qilish ruhsatlari" to'g'risida qonuni bu sohada mehnat migrantlarining faoliyatini tartibga solidi [4]. Ushbu qonun xorijiy ishchilarni jalb qilish, ularga tegishli huquq va imtiyozlar berish jarayonlarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Xorijiy fuqarolarga ish vizalari va turli mehnat huquqlari berilib, ularning huquqiy maqomi to'liq tartibga solinadi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasida mehnat migratsiyasi masalalaridagi hamkorlik keyingi yillarda yanada faollashdi. Bu ikki davlat o'rtasida mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish va ularga munosib sharoitlar yaratish bo'yicha bir qator xalqaro kelishuvlar imzolangan. Ushbu kelishuvlar migrantlar uchun ishchi vizalari, turar joy sharoitlari va ijtimoiy sug'urta kabi muhim masalalarni qamrab oladi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik asosan quyidagi sohalarida amalga oshirilmoqda:

Viza olish jarayonini soddalashtirish: O'zbekiston va Turkiya hukumatlari mehnat migrantlari uchun ish vizalari olish jarayonini osonlashtirish va migrantlar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha bir qator kelishuvlarga erishdilar. Bu esa ikki tomonlama mehnat migratsiyasi jarayonini tezlashtiradi va migrantlarning qonuniy huquqlarini ta'minlaydi.

Huquqiy himoya: Ikkala davlat ham o'z hududida ishlayotgan mehnat migrantlarini huquqiy jihatdan himoya qilish va ularga zarur xizmatlarni taqdim etish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Turkiyada mehnat muhojirlari uchun yaratilgan huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimlari migrantlarning manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan. Ijtimoiy sug'urta tizimi: O'zbek mehnat migrantlari Turkiyada ishlash jarayonida ijtimoiy sug'urta tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu tizim orqali ular pensiya jamg'armalari, tibbiy sug'urta va boshqa ijtimoiy kafolatlardan foydalanishlari mumkin. Bu holat, ikki davlat o'rtasidagi mehnat migratsiyasi jarayonlarini yanada barqaror va qonuniy asosda amalga oshirilishiga hissa qo'shadi. Migratsiya sohasini tartibga solish bo'yicha O'zbekiston va Turkiya o'rtasida bir qator shartnoma va kelishuvlar imzolagan. "O'zbekiston va Turkiya o'rtasida ikki tomonlama mehnat va bandlik munosabatlarini tartibga solish bo'yicha hamkorlik memorandumi; O'zbekiston va Turkiya o'rtasida keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risida" deklaratsiya va hamkorlik kelishuvlari ikki davlat o'rtasida mehnat migrantlari oqimini tartibga solish, ularning huquqiy himoyasini ta'minlash va mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan[5]. O'zbekistonda migratsiya jarayonlarini tartibga solishda Turkiya tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz. Turkiya mehnat migrantlaridan unumli foydalangan va ular tomonidan jo'natilgan kapitallarni eng samarali yo'llar bilan mamlakat iqtisodiyotiga tadbqiq qilgan mamlakatdir. Ularning tajribalaridan ayrimlarini misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin: Xorijda yashovchi turk fuqarolarining o'z oilalari bilan birga yashashlari va farzandlarining ta'lim olishlarini ta'minlash va ularni ijtimoiy himoyalash ishlarini olib bordi. Natijada xorijda bilim salohiyatini oshirgan turk fuqarolari o'z orttirgan tajribalarini mamlakatga tadbqiq qila oldi. Xorijdagi turk diasporalari bilan muntazam aloqalarni tiklashda muloqot maydonini yaratdi va natijada xorijdagi turk fuqarolari mamlakatning qo'llab-quvvatlashi sababli yirik tadbirkorlar, turli kasb egalari va investorlarga aylana oldi, ushbu investorlar xorijda orttirgan kapitallarini o'z mamlakatining milliy iqtisodiyotiga yirik miqdorda investitsiya qilmoqda. Turkiya hozirda o'zining iqtisodiy salohiyati bilan nafaqat Yaqin sharqda, balki barcha turkiy tilli mamlakatlar ichida iqtisodiy salohiyati eng yuqori bo'lgan mamlakatdir. Hozirda Turkiya Respublikasi o'zining iqtisodiy nufuzi bo'yicha dunyoning o'n oltinchi mamlakati hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi va Turkiya hamkorligi oxirgi yillarda sezilarli ravishda o'sib, Turkiya bizning tashqi savdomizda muhim to'rtinchi mamlakatga aylandi.

Turkiya va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi tashqi savdoning umumiy aylanmasi 2171,8 million AQSh dollarini tashkil etib, O'zbekistonning hamkor mamlakatlari orasida Turkiya 6,4 % ulushga ega, Turkiya Respublikasi 1950 yillardan boshlab ishchi kuchini faol ravishda eksport qilgan mamlakatlardandir [6]. O'zbekiston va Turkiya o'rtasida mehnat munosabatlari bo'yicha hamkorlik yildan-yilga rivojlanmoqda. Lekin shunga qaramasdan O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solishda bir nechta muammolar mavjud bo'lib, ular migratsiya jarayonining samaradorligini oshirish va migrantlarning huquqlarini to'liq himoya qilish uchun yechimlar talab qiladi. Quyida bu muammolarning ayrimlari keltirilgan:

1. Ko'plab o'zbekistonlik mehnat migrantlari Turkiyaga noqonuniy yo'llar orqali ketmoqda yoki ishlash uchun ruhsatnomasiz mehnat qilmoqda. Bu esa ularning mehnat huquqlari buzilishiga, ijtimoiy himoya va qonuniy kafolatlardan mahrum bo'lishiga olib keladi;

2. Ba'zi migrantlar, xususan, norasmiy ishlovchilar, mehnat huquqlaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu ularning ish haqining pastligi, mehnat sharoitlarining yomonligi va ijtimoiy himoyaning ta'minlanmasligiga olib keladi;

3. Migrantlarning ko'pchiligi o'z huquqlari va majburiyatlari haqida yetarli bilimga ega emas, bu ularning ko'p hollarda mehnat huquqlarining buzilishi holatlariga olib keladi;

4. Turkiyada ishlayotgan o'zbekistonlik migrantlar uchun konsullik xizmatlari yetarlicha rivojlanmagan bo'lishi mumkin, bu esa huquqiy yordam olishda qiyinchiliklarga olib keladi;

Ushbu muammolarni hal qilish uchun bir nechta takliflarni ilgari surish mumkin:

Qonuniy mehnat faoliyati tizimini rivojlantirish va noqonuniy mehnat faoliyatini kamaytirish uchun qat'iy nazorat va jazolash choralarini kuchaytirish; Yuridik yordam va maslahat xizmatlarini kengaytirish; Huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish va migrantlarga qonuniy yordam ko'rsatish tizimlarini rivojlantirish; Konsullik xizmatlarini kengaytirish, ularning samaradorligini oshirish va migrantlarga o'z huquqlarini himoya qilishda yordam beradigan tizimlarni yaratish zarur. Turkiya hukumati O'zbekistonlik migrantlarni va ish beruvchilarni huquqiy jihatdan muntazam nazorat qilish tizimini joriy qilishi kerak. Noqonuniy holatlar aniqlangan taqdirda, qonunda belgilangan tartibda jazo choralarini ko'rib chiqish lozim.

Xulosa: Mehnat migratsiyasi O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi aloqalarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning huquqiy jihatlarini to'g'ri tartibga solish, ikki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish va qonuniy sharoitlar yaratish masalalari xalqaro hamkorlikda hal qilinishi zarur. Shuningdek, migratsiya jarayonini soddalashtirish va mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro tajribaga asoslangan kompleks yondashuvni amalga oshirish kerak. Migrantlar uchun mehnat shartnomalarini aniqroq va kengroq huquqiy himoyani ta'minlaydigan shaklda tuzish lozim. Ijtimoiy himoya xizmatlarini yaxshilash va migrantlarni qonuniy tartibda ishga joylashishi masalalarini nazorat qilish tizimlarini rivojlantirish davlatlararo hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

Adabiyotlar:

1. Xo'jageldiyev.I.M. Mehnat Migratsiyasi. International scientific and practical conference "science, education and innovation:problem, solutions and prospects" may 17-18.2024
2. Qodirova Z.A. Globallashuv sharoitida O'zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuvi. (PhD) avtoref.diss. Toshkent .2018.18-b
3. www.migratsion.uz/documents
4. uzembassy.org.tr
5. parliament.gov.uz
6. Sharipov.Q.B Ishchi kuchi migratsiyasining mamlakat milliy iqtisodiyotiga ta'sir e'tish etish omillari. "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. 2019-yil